

“TASDIQLAYMAN”



Samarqand viloyati statistika

boshqarmasi boshlig'i

D. Musinov

“07” may 2021 yil

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi to'g'risida

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi (keyingi o'rinlarda Bo'lim deb yuritiladi) Samarqand viloyati statistika boshqarmasining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

2. Bo'lim faoliyati investitsiya va qurilish soxasida rivojlanishning milliy va mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy metodologiyaga, xalqaro standartlar va qoidalarga asoslangan, davlat xokimiyati va boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, fuqorolar va tashkilotlarning rasmiy statistika axborotlariga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi axborot-statistika tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga yo'naltirilgan;

3. Bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonun hujjatlariga, “O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida”gi Nizomga hamda mazkur Nizomga amal qiladi.

4. Bo'lim o'z faoliyatini boshliqning birinchi o'rinbosari rahbarligida va Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha amalga oshiradi.

5. Bo'lim o'z faoliyatini tuman va shahar statistika bo'limlari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

II. Bo'limning asosiy vazifalari va funksiyalari

Quyidagilar bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- investitsiya va qurilish soxasi bo'yicha statistik hisobotlarni "Davlat statistika ishlari dasturi" asosida yig'ish, qayta ishlash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish hamda taqdim etish;
- statistik ko'rsatkichlarni aniqliligini, xaqqoniyligini, ishonchliligini, xolisligini, tezkorligini va davriyligini ta'minlash bo'yicha ish tashkil etish;
- statistika soxasida yagona siyosatni ishlab chiqarish va amalga oshirish, qayta ishlash, saqlash, umumlashtirish, yig'ish va belgilangan tartibda taqdim etish;
- statistik hisobotlarni elektron hamda birlamchi ma'lumotlarini yig'ma tarzda tahlil va e'lon qilish;
- Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddat va hajmlarni ta'minlash;
- statistika va axborot resurslarini xavfsizligini ta'minlash;
- investitsiya va qurilish soxasi bo'yicha kuzatuvlar tashkil etish;
- tumanlar, shahar statistika bo'limlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish;
- investitsiya va qurilish statistikasi hisobotlarini elektron shaklda taqdim etish va elektron xujjat aylanishi tizimini joriy qilish ishlarni tashkil etish, bu yo'nalishda xududiy statistika organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, investitsiya va qurilish statistikasi asosiy ko'rsatkichlarining takomillashtirilgan ma'lumotlar bazasini yuritish;
- statistik yig'ma axborotlar va ma'ruzalar uchun berilgan qo'llanmalar asosida ma'lumotlar tayyorlash;
- statistik axborotlarni qayta ishlashda, saqlashda va e'lon qilishda zamonaviy axborot-texnologiyalaridan foydalanish va tadbiq etish;
- bo'limga yuklatilgan boshqa funksiyalarni belgilangan tartibda amalga oshirish.

III. Bo'limning huquqlari va javobgarligi

Bo'lim o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

- yuridik va jismoniy shaxslardan hamda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan belgilangan shakllarda va muddatlarda statistik ma'lumotlarni so'rash va olish;
- Rasmiy statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturining tarkibi va mazmuniga oid takliflar kiritish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan taqdim etilgan elektron hamda birlamchi statistik hisobotlarni xaqqoniyligini va ishonchliligini ekspertizadan o'tkazish;
- investitsiya va qurilish statistikasiga oid hisobotlar shakllarini, tanlanma kuzatuv so'rovnomalarini, ularni to'ldirish bo'yicha tushintirishlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish.

Bo'lim:

- o'ziga yuklangan vazifa hamda funksiyalarning zarur darajada va samarali bajarilishi uchun;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari va boshqa hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumat qarorlari, farmoyishlari, Davlat statistika qo'mitasi rahbariyati topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi, hisobot va ijro intizomini ta'minlanishi uchun;
- Bo'limga kelib tushgan va chiqayotgan materiallarning davlat, tijorat sirlariga rioya qilinishi va saqlanishini ta'minlash uchun javob beradi.

IV. Bo'lim faoliyatini tashkil etish

Bo'lim faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistikasi to'g'risida"gi Qonuni, ushbu Nizom, Davlat statistika qo'mitasi buyruqlari va qarorlari, viloyat statistika boshqarmasi buyruqlari shuningdek, Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, viloyat statistika boshqarmasining chora-tadbirlari, Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limining yillik ish rejasi, xodimlarning lavozim vazifalari asosida tashkil etiladi;

Bo'lim xodimlarining lavozim vazifalari boshliqning birinchi o'rinbosari bilan kelishiladi va boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Bo'limga viloyat statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan lavozimga tasdiqlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan boshliq rahbarlik qiladi.

Yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish bo'yicha bo'lim faoliyati samaradorligining doimiy monitoringi, Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturini va

boshqarma rahbariyati topshiriqlarini elektron hujjat aylanishi tizimida o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish, shuningdek Bo'lim tomonidan bajarilgan rejadagi va rejadan tashqari ishlar to'g'risida oylik hisobot tuzish orqali tashkil etiladi.

Bo'lim boshlig'i:

Bo'lim xodimlari tomonidan yuklatilgan vazifalar, majburiyatlarni zarur darajada bajarilishini ta'minlaydi, ijro va mehnat intizomi holati uchun javob beradi;

Bo'lim ishining samaradorligini oshirish va uni kadrlar bilan to'ldirish choralarini ko'radi;

xodimlar tomonidan bo'limga kelib tushgan va chiqayotgan materiallarning davlat va tijorat sirlariga rioya qilinishini va saqlanishini ta'minlaydi.

Bo'lim boshlig'i quyidagi huquqlarga ega:

Bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash;

xodimlarni boshqa lavozimlarga ko'rsatish, o'tkazish va rag'batlantirish, zarur hollarda jazolash chorasini qo'llash to'g'risida boshqarma boshlig'iga takliflar kiritish;

Bo'lim xodimlarining lavozim maoshlariga shaxsiy ustamalar belgilash, shuningdek avvalgi o'rnatilgan ustamalarni kamaytirish yoki bekor qilish bo'yicha boshqarma boshlig'iga takliflar kiritish;

Bo'lim ishini tashkil etishni, usuli va uslubini yaxshilash, hisobot, ijro va mehnat intizomini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.